

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI BORASIDAGI BILIM VA KO'NIKMALARINI BAHOLASH MEZONLARI

Ibragimova Nazokatxon Qaxramonjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16911396>

Jahon hamjamiyatidagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot, shuningdek, kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni shu bosqichi betakror o'ziga xos xususiyatga egaki, bunda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, taffakur, yangi iformatsion va pedagogik texnologiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yoshlarni mustaqil, ijodiy fikrlash imkoniyatlarini ishga solish tufayli ular kelgusida vujudga kelish ehtimoli mavjud muamolarni ijobiy hal qilishi orqali, rivojlangan ilg'or texnologiyali davlatlar qatorida munosib o'rin egallashga hissa qo'shishlari mumkin. "Ta'lim" to'g'risidagi Qonunni, "Kadrlar tayyorlaash milliy dasturi" ni ijtimoiy turmushda amalga oshirish jarayonida xalq xo'jaligining barcha jabhalarida "inson omili" ning ro'li ortib bormoqda. Yuksak qobilyatli mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga talab kun sayin kuchayib bormoqda, modomiki shunday ekan, iste'dodli yakka shaxslardagina emas, balki barcha mehnatkashlarning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish muammosi zaruratga aylanib kelmoqda. Bunday sharoitda inson va uning intellektual salohiyatiga aloqador bo'lgan fanlarning ahamiyati tobora ortib borishi, har bir shaxsda namoyon bo'lgan va yashirin tarzidagi imkoniyatlaridan foydalanish, ularni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlarini ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan ishlab chiqish ehtiyoji tug'ilmoqda. Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib iqtisodiy va siyosoy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'lim jarayoniga mukammallilik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali uning samaradorligini oshirish va muqobillashtirish yo'llarini izlash borasida pedagog shaxasida doimo tadqiqotlar olib borilgan. Zamonaviy pedagogikada ham ta'limning shunday modellari, unga nisbatan shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ta'limga ishlab chiqarish-texnologik jarayon, ma'lum sharoitlarida va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishmi kafolatlaydigan xarakterni berish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti o'sib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda sog'lom turmush tarzining ijtimoiy - gigienik mezonlarini aniq belgilab olishning ahamiyati juda katta. Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzi mafkurasi - inson salomatligining qonunyalari va bilimlari majmui emas, balki inson salomatligini mustaxkamlashga bo'lgan qarashlar tizimidan iboratdir. Ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish turli yo'nalishlarda izchillik bilan, muayyan dastur asosida, aniq yo'nalishlarda olib borilishi lozim. Xususan, bu avvalo oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarga sog'lom turmush tarziga oid muayyan tibbiy va gigienik bilimlar berish, ularda sog'lom turmush tarzini saqlashning inson tanasi takomiliga ta'siri haqidagi tushunchalarni shakllantirishga qaratilsa, ikkinchi tomondan, yoshlarda qat'iy rejim asosida gigienik qoidalarga amal qilish, o'zi va yon-atrofdagilarning sog'lig'ini asrashni kundalik odatga aylantirish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bevosita aloqadordir. Shuningdek, sog'lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishi bilan birga, barcha ta'lim-tarbiya maskanlari bilan hamjihatlikda maktab, litsey, kollejlarda beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuniga chuqur singdirilmog'i lozim.

Xulosa: Estetik tarbiya asosida bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish – bu dolzarb va muhim vazifadir. Estetik tarbiya insonning nafaqat san'at asarlarini

idrok etish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi, balki uning ma'naviy olamini boyitib, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga va, eng muhimi, sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak o'qituvchilar esa jamiyatning kelajagi uchun mas'ul bo'lgan shaxslardir. Ularning sog'lom turmush tarziga rioya qilishi, u borada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'z navbatida, yosh avlodni sog'lom turmush tarziga o'rgatish, ularda sog'lom odatlarni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu ishda estetik tarbiyaning sog'lom turmush tarziga ta'siri, bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari, bu borada jahon tajribasi va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, muammolar va ularning yechimlari atroflicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, estetik tarbiya bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abdullaev. «Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi» (1-jild).Toshkent. «NAVRO'Z» nashriyoti, 2017
2. Бердиева Х. Б. Развитие социокультурной компетентности у будущих учителей начальных классов //Педагогическое образование и наука. - 2020. - №. 1. - С. 128-131.
3. Бердиева Х. Б., Бердиева Н. У. Проблемы развития социокультурной компетентности у школьников начальных классов //Евразийское Научное Объединение. - 2019. - №. 12-5. - С. 408-410.